



**Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi**  
*Nizomiy nomidagi Toshknet davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

## **ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 'METODIKASI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, media vositalari orqali o'quvchilar o'rtaida kreativ fikrlashni shakllantirish, nutq va tafakkurini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish bat afsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, axborot, media, axborotlashtirish, axborot madaniyati.

Ta'lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o'sib-ulg'ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirgan kelajakda jamiyatda o'z o'rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta'lim maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo'naltirilgan imkoniyatlar o'z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta'limtarbiya berishni, o'quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o'z navbatida har bir o'qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim-tarbiyaning poydevoridir[10;3] Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik chidamli bo'lganidek, mukammal boshlang'ich ta'lim olgan o'quvchilar yuqori sinflarda va ta'limning keyingi bosqichlarida hech qiyalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilar savodini chiqarishda, ularga mustahkam bilim berish va ularda zaruriy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda barcha imkoniyatlarni ishga solishlari, ilk ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli olib borishi lozimdir. Bu vazifa har bir o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi va bu mas'uliyatni to'laqonli his etgan holda mehnat qilish zamirida esa ijodkorlik, izlanish, ilg'or va innovatsion texnologiyalarni, ilg'or ish tajribalarini, samarali didaktik materiallarni o'qitish jarayonida mahorat bilan qo'llash faoliyati yotadi. Hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi, yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning hozirgi bosqichi bu jarayonga axborot-kommunikatsion texnologiyalarining, kompyuter texnikasining keng ko'lamda kirib kelishi bilan xarakterlanadi.[10;22] Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturining amalga oshirilishi tufayli bugungi kunda deyarli barcha maktablar kompyuter texnikasiga ega bo'ldilar va maktab jamoalari ta'lim jarayonida mazkur texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanmoqdalar. Respublikamizda ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish uchun tegishli ilmiy-metodik bazani yaratish va mustahkamlash jarayoni ketmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari sifatida "ta'limning uzluksizligi va izchilligi, davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim olish"da mashg'ulotlarda mediavositalardan foydalanish alohida qayd etilgan. Biroq boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida o'quvchilarning nutq va tafakkurini rivojlantirish bo'yicha so'z va iboralar ustida ishlashning mazmuni va shakllarida uzviylik va uzluksizlik optimallashtirilmaganligi, leksik-grammatik mashqlar mukammal tizim sifatida kasb etmaganligini ko'rsatdi.[5;8] Ona tilidan didaktik materiallar kompleksi kam bo'lib, ularning mavjudlari ham, mazmunan bugungi kunning innovatsion talablari darajasida emasligi ayon bo'ldi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini o'qitish usullarining to'g'ri belgilab olinmasligi, ona tilini o'qitishda darslikdagi mashq shartlarinigina bajarish, uning nutq o'stirish, mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bajarilmasligi o'quvchilarning tilni amaliy o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir etmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nomuvofiqligi, darslarga alohida tayyorgarlik ko'rilmamasligi tufayli ona tilini o'qitish darajasi jahon standarti talablariga javob berolmasligidan dalolat beradi.[2;11-16]



Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish 6 vazifalari me'yoriy hujjatlarda aniq-ravshan belgilab berilganligi hamda boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari uchun mustahkam zamin yaratishiga qaramasdan, ona tili ta'limida tafakkurni rivojlantiruvchi aqliy faoliyatning analiz-sintez, taqqoslash, aniqlash, umumlashtirish, dalillash va xulosalash kabi usullariga e'tiborsizlik til va tafakkur uyg'unligiga erishishning og'riqli nuqtalaridandir. Holbuki, o'quvchilar mazkur usullar yordamida ifodalanayotgan nutqni gaplarga, gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'in va tovushlarga ajratadi, bu elementlardan so'z haqida bir butun tasavvurga ega bo'ladi [8;14]

Davlat ta'lim standartining maqsadi, vazifalari, printsiplari va tarkibiy qismlari, ya'ni umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasini orqali ona tili fanining o'quv yuklamasi hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti o'rganilib, o'quv dasturining mazmuni bo'yicha dars mashg'ulotlari o'tkazildi va malaka talablarida belgilangan o'zlashtirish darajalari, baholash tizimi, innovatsion metodlar asosida o'qitish metodikasi takomillashtirildi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini loyihalash jarayonida o'quvchilarni faollashtirish texnologiyasi asosida ularning obyektiv faoliyatini amalga oshirish quyidagilar orqali belgilandi: o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish asosida xulosalar chiqarishi; tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlardan o'quv faoliyatida foydalana olishi; nazariy bilimlarni turli vaziyatlar (matn ichidan talab qilingan so'z yoki so'z birikmasini topish, matnda berilgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish va so'zlarni talab qilingan guruhlarga ajratib yozish)ga tatbiq eta bilishi; egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi. O'quvchini ta'lim jarayoni sub'ekti sifatida ishtirok etishi orqali ona tili ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llash, o'quv topshiriqlarini nostandard test shakliga keltirish, o'zlashtiriladigan ob'ektlarni nutq tovushi, so'z va so'z turkumlari, turli sintaktik qurilmalarni ijodiy fikrlash vositasiga aylantirish orqali o'quvchilarning interfaolligi rivojlantiriladi.[9;56]

Yaratilgan va ta'lim muassasalariga qadar yetkazib berilayotgan elektron darsliklar, ayrim olingan mavzular bo'yicha dars loyihalari, slaydlar to'plamlari "Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quvchilarni zamon talabida baholash bo'yicha metodik qo'llanmalar fikrimizning dalilidir. Umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yodashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarida har bir o'quvchining tayanch va fanga oid kompetensiyalarini umumjahon ta'lim standartlari doirasiga olib chiqish vazifasi qo'yilgan. O'quvchining savodxonlik darajasini oshirishni esa zamonaviy axborot texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi[3;6]

O'quvchining savodxonlik darajasini oshirishda ona tili ta'limi muhim omillardandir. Ona tilini o'qitishda axborot texnologiyalardan unumli foydalanish ta'lim samaradorligini beqiyos oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'limning har ikkala bosqichida ona tili ta'limi samaradorligini oshirish uchun qilinadigan sa'yi-harakatlar bugungi kunning ham talabidir desak yanglishmaymiz. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarida o'quvchining savodxonligini oshirish maqsad qilib belgilangan ekan, bunga boshlang'ich sinflardanoq jiddiy e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratilgan va bular sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv o'quv dasturlari, audio qo'llanmalar, multimediali darslarni kiritish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirishida eng qulay va zamonaviy usullardan biri-dars jarayonida multimedia darslaridan foydalanish, o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi avvaldan dasturlashtirilib disklarga yozilgan o'quv topshiriqlari yordamida og'zaki va yozma matnlar yaratishga mo'ljallangan kommunikativ modullar asosida ishlashdir. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z yasash, gap tuzish va matn yaratishga mo'ljallangan kommunikativ modullar o'quvchilarni aniq, jadal fikrlashga, oxirgi maqsad sari intilishga, lozim bo'lsa o'z fikrini himoya va isbot qilishga o'rgatadi, o'z nutqiy mahoratini mustaqil rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur fikrlarning rivoji uchun imkoniyat yaratish esa, yana va yana o'qituvchiga, uning pedagogik mahoratiga, zamonaviy texnika vositalarini tushunishi va uni o'rganilayotgan mavzu doirasida tadbiq eta bilishiga bog'liqdir.



So‘zimizning isboti sifatida 4-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirishga mo‘ljallangan o‘yin topshiriqlardan namuna keltiramiz.

Topshiriq: Odam, yurt, oltin so‘zlariga yaqin ma’noli so‘zlarni toping. Eng ma’qulini tanlab daftaringizga ko‘chiring. Yoki “Davom ettir ” didaktik o‘yinidan foydalanish mumkin. Monitordan o‘quvchilar biror gapning boshlanishini o‘qiydilar, keyin o‘zları jumalalarni oxiriga yetkazadilar. Masalan: 1. Qish fasli tugagach, bahor fasli kirib keldi. 2. Bahor fasli oyidan boshlanadi 3. Bahor fasli oylaridan iborat. 4. Issiq o‘lkalardan qaldirg‘och, kabi qushlar uchib keladi.

Bolalar nuqtalar o‘rniga quyidagi so‘zlarni qo‘yib davom ettiradilar.

1. Qish fasli tugagach, bahor fasli kirib keldi.
2. Bahor fasli mart oyidan boshlanadi
3. Bahor fasli mart, aprel, may oylaridan iborat.
4. Issiq o‘lkalardan qaldirg‘och, jiblajibon, turna kabi qushlar uchib keladi.

Bunday topshiriqlarning miqdori, mazmuni va shakli turlicha bo‘lishi tabiiy. O‘qituvchi buni darsning xarakteri, maqsadi. Dars jarayonidagi ehtiyoj va imkoniyatga qarab belgilaydi.[6;8] Dars jarayonida yozilishi va tahlil qilinishi lozim bo‘lgan maqollar o‘qituvchi tomonidan diktafonda audio tarzida eshittiriladi. O‘quvchilar eshitganlarini imlo qoidalari hamda tinish belgilariga rioya qilgan holda kompyuter ekraniga terishi lozim. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar so‘zlarni to‘g’ri va chiroyli talaffuz qilishga, imloviy xatolardan saqlanishga, jumani shoshilmay qiroat bilan o‘qishga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda jadal fikrlash, zamonaviy texnika bilan erkin ijodiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Ta’limning zamonaviy jamiyat hayotida o‘rni ko‘p jihatdan axborot jamiyatni axborot sivilizatsiyasini shakllantirish, ta’limni axborotlashtirish tushunchalarida o‘z aksini topadigan bilim va ma’lumotlarning o‘sib borayotgan roli bilan belgilanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o’sishini ta’minlovchi omillar aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog’liq axborot va bilim jamiyatning asosiy o‘zgartiruvchi kuchiga aylanadi. O‘quvchida tez bilib olishga, ixcham va jadal fikrlashga, o‘z bilim va malakasini darhol namoyish yetishga ishtyoq, o‘z bilimiga ishonch ortadi. Qisqa qilib aytganda, kompyuter bilan muloqot o‘quvchini o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonining sub’ektiga aylantiradi. Kompyuter dasturi uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga o‘rgatadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187–son qarori. <https://lex.uz/docs/3153714>.
2. Po‘latova D.T. Ta’lim jaraeniga elektron axborot ta’lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.// Zamonaviy ta’lim.-T.: 2015.- №7.-11-16 b
3. Ta’lim-tarbiya jaraeniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini samarali joriy etish: muammo va yechimlar. Buxoro viloyat XTXQTMOI. Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi tezislari to‘plami. II qism (8-9 yanvar) Buxoro 2016.
4. Ogolsova N.N. Multimediyeniye proyekti kak sredstvo povisheniya kvalifikasii pedagogov: dis. .... kand. ped. nauk / N.N. Ogolsova. - Novokuznesk, 2007. - 229 s.
5. Axborot texnologiyalari \_ Samarqand 2020 Aminov.I.B Bustonov.X,A
6. Axborot texnologiyalari o‘quv jarayoniga kiritish,,boshlang‘ich maktab jurnali” Zaxarova N.I
7. Ijodkor o‘qituvchi ilmiy uslubiy jurnal \_2022 yil 17 son Maqsudov U.
8. O‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi \_2016 Toshkent.
9. Ona tili darslik 2023